

Italiya universitetlari bilan hamkorlikda Biotibbiyot muhandisligi yo'nalishi modernizatsiya qilinadi

Shu kunlarda O'zbekiston Respublikasida Jahon banki tomonidan moliyalashtirilgan "Oliy ta'lim muassasalarning moddiy texnika bazasini mustaxkamlash" loyihasi doirasida hamda Italiya Respublikasi Oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish maqsadida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining fan va innovatsiyalar bo'yicha o'rinbosari R.Hakimov boshchiligidagi ishchi guruhi Italiyada xizmat safarini amalga oshirmoqda.






Kuni kecha Rim shahrida Barqaror rivojlantirish uchun universitetlararo tadqiqot markazi (CIRPS) vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida CIRPS bilan hamkorlikda **"Tibbiy uskunalarga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash texnoparki"**ni tashkil etish va texnoparkni ilg'or tibbiyot asbob-uskunalariga xizmat ko'rsatish yo'nalishidagi laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash masalasi muhokama qilinib, **uch tomonlama** shartnoma imzolandi.

Italiya Respublikasining ta'lim, universitetlar va tadqiqot vazirligi vakillari bilan oliy ta'limda sifatni ta'minlash, Oliy ta'lim uchun Yevropa sifat kafolati reestrda a'zolik masalalari bo'yicha uchrashuv o'tkazildi. Hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, doktorantlarni tayyorlash, ularning stajirovkalarini yo'lga qo'yish masalalarida muhokamalar o'tkaziladi. O'zbekistonning turli mintaqalaridagi 7 ta davlat oliy ta'lim muassasalaridan yiliga **30 nafar** doktorantlar va

professor-o'qituvchilar almashinuvini joriy qilish bo'yicha kelishuvga erishildi.



Laquila universiteti hamkorlik masalalarini hal qilish bo'yicha uchrashuv o'tkazildi. Natijada 2023–2024-yillar davomida Erasmus+ grant loyihasi ko'magida respublikaning 7 ta oliy ta'lim muassasasi (Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti, Andijon mashinasozlik instituti, Andijon davlat tibbiyot instituti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va Toshkent tibbiyot akademiyasining Urganch filiallari)da **“Biotibbiyot muhandisligi”** bakalavriat ta'lim yo'nalishini innovatsion g'oyalar va raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish va tashkil etish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Xususan, 7 ta oliy ta'lim muassasasida Biotibbiyot muhandisligi ta'lim yo'nalishining Yevropa standarti asosida

o'quv reja va dasturlari ishlab chiqiladi, o'qitish materiallari va vositalari tayyorlanadi, **70 dan ortiq** professor-o'qituvchilarning malakasi oshiriladi, har bir oliy ta'lim muassasasida kamida **20 nafardan** talabalar ushbu yo'nalishga ixtisoslashtiriladi.